

YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA O‘QITUVCHINING O‘RNI

Dexqonov Anvarjon Akmaljon o‘gli

Qo‘qon davlat universiteti

Talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning dolzarbligi, bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamiyatning o‘rni haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, yosh avlod, tarbiya, milliy qadriyat, oila, ta’lim, ma’naviyat, g‘urur, fidoyilik.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальность формирования чувства патриотизма в сердцах подрастающего поколения, роль семьи, образовательных учреждений, средств массовой информации и общества в этом процессе.*

Ключевые слова: *Патриотизм, молодое поколение, воспитание, национальные ценности, семья, образование, духовность, гордость, преданность.*

Annotation: *This article discusses the relevance of forming a sense of patriotism in the hearts of the younger generation, the role of the family, educational institutions, the media and society in this process.*

Keywords: *Patriotism, young generation, upbringing, national values, family, education, spirituality, pride, dedication.*

Yosh avlod – jamiyatning ertangi kuni, kelajagidir. Ularni sog‘lom, ma’naviy barkamol va vatanparvar etib tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, yoshlarga bo‘lgan e’tibor sharoitida ularning qalbida Vatanga muhabbat, fidoyilik, sadoqat kabi oliy fazilatlarni shakllantirish o‘ta muhim hisoblanadi. Bunda esa boshlang‘ich ta’limdagi o‘qituvchilarining o‘rni beqiyosdir.

Yurt taraqqiyoti, xalq kelajagi, millat istiqboli – bevosita yosh avlod tarbiyasiga bog‘liq. Ayniqsa, ularning qalbida vatanparvarlik, fidoyilik, yurtga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yurti sevish – imondandir. Yoshlar qalbiga Vatanga muhabbatni singdirish bizning eng oliy burchimizdir.” Bu so‘zlar yoshlarni ruhiy-ma’naviy barkamol etib voyaga yetkazish jarayonida vatanparvarlikning naqadar muhim ekani haqida chuqur o‘ylantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi esa quyidagi asosiy omillar orqali amalga oshiriladi:

1. Oila tarbiyasi – Bola avvalo oilada Vatanga muhabbat, sadoqat, halollik, fidoyilik kabi fazilatlarni o‘rganashi lozim. Ota-onaning yurtga bo‘lgan munosabati farzandga namuna bo‘ladi, chunki bola yoshligida kimgadir taqlid qiladi va bu uni g ota-onasi bo‘lishi lozim,

ya'ni bolalar ko'proq narsanni o'ta-onasidan o'rganadi va har bir ishda, har bir jarayonda o'ta-onam namuna bo'lishlari juda muhimdir.

2. Maktab va ta'lim maskanlari – Tarix, adabiyot, ma'naviyat darslarida o'quvchilarga buyuk ajdodlarimizning yurt uchun qilgan xizmatlari, fidokorona hayoti haqida ma'lumotlar berish orqali ularning qalbida milliy g'urur uyg'onadi va ularda vatanga bo'lgan mehr ortadi hamda vatanparvarlik singari ijobiy fazilatlar shakllanadi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Vatan uchun jonim fido" degan g'oyasi yosh ongiga singdirilsa bolalar bundan vatanga hurmat, vatan uchun xattoki jonini berishni ong ostiga singdiradi.

3. Ommaviy axborot vositalari va internet – Bugungi raqamli zamonda yoshlar ko'p vaqtini internetda o'tkazadi. Shu bois, vatanparvarlik ruhidagi videoroliklar, filmlar, maqolalar, ijtimoiy tarmoqlardagi ijobiy targ'ibotlar ularning dunyoqarashiga katta ta'sir qiladi. Shu sababli, ham biz yosh avlodga ko'proq shu turdagi manbalarni ko'rsatishimiz va o'rnatishlariga undashimiz lozim.

4. Amaliy tadbirlar – Yurtimizda o'tkazilayotgan "Vatan himoyachilari kuni", "Xotira va qadrlash kuni", "Jasorat maktabi" kabi loyihalar yoshlar qalbiga faxr va vatanparvarlik tuyg'usini singdirishga xizmat qiladi, negaki bolalar bunday loyihalarda ishtirok etish orqali o'zlarida mustahkam ishonch va vatanga nisbatan hurmatni shakllantiradilar. Shuning uchun har bir pedagog bu turdagi loyihalarni tashkil etishi va bu turdagi tadbir, loyihalarga yuzaki qaramasligi juda muhimdir.

5. Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tashkilotlar faoliyati – "Vatanparvar", "Yoshlar ittifoqi", "Temurbeklar maktabi" kabi tashkilotlar yoshlarni intizomli, fidoyi, jismonan va ma'nan sog'lom etib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi va bu turdagi maktablar soni bugungi kunda ortib bormoqda. Bunda ko'zlangan maqsad esa albatta vatanimiz uchun har tomonlama yetuk va barkamol shaxsni voyaga yetkazish va asosiysi ularda vatanparvarlik ruhini shakllantirish hisoblanadi.

Shu bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasida muayyan muammolar ham mavjud: ayrim yoshlar orasida yengil hayotga intilish, g'arbona turmush tarziga taqlid, o'z milliy qadriyatlariga loqaydlik bugungi kunda rosa ko'p kuzatilmoqda. Bu esa albatta targ'ibot va tarbiya ishlarini zamonaviy usullarda, yoshlar qiziqishlari asosida olib borish zarurligini ko'rsatadi va pedagoglarning har bir bolaga individual yondashishini talab qiladi. Masalan, TikTok yoki YouTube kabi platformalarda qisqa, ta'sirchan, yoshlar tili bilan ishlangan videolar kontenlar tayyorlash orqali ko'zlangan natijamizga erishamiz.

Vatanparvarlik tarbiyasi – ijtimoiy ong va ijtimoiy faoliyat uyg'unligi. Vatanparvarlik insonning ichki dunyosiga chuqur singgan ruhiy-axloqiy holat bo'lib, bu faqat tushuncha darajasida emas, balki amalda ifodalanishi kerak. Ya'ni, faqat "Men Vatanimni yaxshi ko'raman" demasdan, uni amaliy harakatlar – o'qish, mehnat, jamiyat hayotida faol ishtirok orqali namoyon qilishdir. Bugungi globallashuv va axborot urushi davrida yoshlarning ongini turli g'arazli g'oyalar egallasligi uchun ularni mustahkam mafkuraviy immunitetga ega

qilish tarbiyalash zarur. Vatanparvarlik shu immunitetning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun:

1. Tarixiy haqiqat asosida darslar o‘tilishi
2. Buyuk ajdodlarimiz faoliyati o‘rganilishi
3. Erkin fikr, tahliliy yondashuv targ‘ib qilinishi kerak.

O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Misol: “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da yoshlarning ma‘naviy tarbiyasi alohida blok sifatida ajratilgan. “Temurbeklar maktabi”, “Vatanparvar” tashkilotlari orqali yoshlar harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida chuqur bilim va ko‘nikmalarni egallamoqda.

Vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda yoshlarning psixologik yosh xususiyatlarini ham hisobga olish juda muhim. Misol uchun:

1. 6–10 yoshda ertak, afsona, multfilm orqali vatanparvarlik tushunchasi singdiriladi.
2. 11–15 yoshda real tarixiy misollar, badiiy adabiyotlar, musobaqalar orqali shakllanadi.
3. 16 yoshdan boshlab esa shaxsiy hayotiy qarash, ongli tanlov shakllanadi – bu bosqichda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv muhim.

Shuningdek zamonaviy texnologiyalar yordamida ham bolalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish mumkin

- AR (Augmented Reality), VR (Virtual Reality) texnologiyalari asosida yurtimiz tarixini interaktiv ko‘rinishda o‘rgatish.
- Vatan haqida viktorina ilovalari, mobil dasturlar ishlab chiqish.
- YouTube, TikTok, Instagram platformalarida yoshlar tilida qisqa vatanparvarlik videoroliklar tayyorlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – bu Vatan taqdiri, uning ertangi kuni uchun mustahkam poydevor yaratishdir. Agar har bir bola yurtiga mehr bilan qarasa, uni ardoqlasa, himoya qilsa – bu jamiyatda tinchlik, taraqqiyot va birdamlik hukm suradi. Shuning uchun tarbiya jarayonida barchamiz – avvallo ota-ona, ustoz, jamiyat a‘zosi sifatida yoshlar qalbiga milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini singdirishga mas’ulmiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, yosh avlodda vatanparvarlik ruhini shakllantirish – bu Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, ongli, faol fuqarolarni tarbiyalash deganidir. Bu borada har bir pedagog, ota-ona, jamiyat a‘zosi o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim. Agar yoshlar qalbida milliy g‘urur va Vatanga muhabbat singdirilsa, O‘zbekistonning kelajagi yanada porloq bo‘ladi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.Sahifa 23-34.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot davri” konsepsiyasi, 2021-yil. Sahifa 12-20.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-apreldagi "Vatanparvarlikni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" qarori. Sahifa 45-58.
4. “Ma'naviyat asoslari” o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020.Sahifa 30-50.
5. Turdiyev A. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviyat – Toshkent: O'qituvchi, 2019.Sahifa 78-89.